**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**"Tasdiqlayman"**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori**
**M.E.Po'latov**
**2024 yil "__" ______**

**Ro'yxatga olindi: № FD-09-24**
**2024 yil "29" avgust**

**BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI**

**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta'lim sohas:** 410 000 - Biznes va boshqaruv

**Magistratura mutaxassisligi:**70410501 - **Moliya**

**Samarqand-2024**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | Kreditlar |
|---|---|---|---|
| BSS1105 | 2024 - 2025 | 2 | 5 |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Majburiy | O'zbek/rus | | 4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Byudjet-soliq siyosati | 60 | 90 | 150 |

2 **I.Fanning mazmuni.**

Mamlakat miqyosida davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan markazlashgan pul fondi hisoblangan davlat byudjetini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar "Byudjet-soliq siyosati" fanining dolzarbligini ifodalaydi. Shuningdek, jamiyat sub'ektlarini moliyaviy mablag'lar bilan uzviy ta'minlanishiga qulay sharoit tug'diradi. Moliyaviy munosabatlarni oqilona va odilona tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirib borishda "Byudjet-soliq siyosati" fani katta ahamiyat kasb etuvchi fanlardan bo'lib hisoblanadi.

"Byudjet-soliq siyosati" fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib yetishadigan magistrantlar uchun davlat moliyasini rejalashtirish istiqbollari haqida, Byudjet-soliq siyosatining strategik va taktik vazifalari haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi Byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – magistrantlarga davlat moliyasini rejalashtirish istiqbollari haqida, Byudjet-soliq siyosatining strategik va taktik vazifalari haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi Byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rgatishdan iborat.

**II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI) MOLIYANING NAZARIY ASOSLARI (1 MODUL)**

**1-mavzu. Byudjet-soliq siyosati: fanining predmeti va vazifalarini o'rganamiz**

Byudjet-soliq siyosati fanining mazmuni, predmeti va vazifalarini o'rganish zaruriyati. Fanni o'qitishning ob'ektiv zarurligi va boshqa maxsus fanlar bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish. Byudjet-soliq siyosatning o'ziga xos eng ustuvor xususiyatlari. Byudjet-soliq siyosatini pul mablag'ining harakatidan ajralgan holda amal qilishi

**2-mavzu.Moliyaviy siyosat – byudjet-soliq siyosatining asosi**

Moliyaviy siyosat xaqida tushuncha. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari. Zamonaviy moliyaviy siyosatning xususiyatlari. Moliyaviy siyosatni amalga oshirilishida davlatning funksiyasi. Xozirgi boskichdagi moliyaviy siyosat va uning o'ziga xos xususiyatlari.

**3-mavzu. Byudjet siyosati – moliyaviy siyosatning eng muhim tarkibiy qismi**

Byudjet siyosatining mazmun mohiyati. Byudjet harajatlari – byudjet siyosati namoyon bo'lishining asosiy shakli. Byudjetdan moliyalashtirish va byudjet siyosati. Byudjet siyosati va byudjet normalari (me'yorlari), harajatlar smetasi va byudjet krediti. Byudjet harajatlarini sarflash masalalari va vazifalari, ularning byudjet siyosati bilan o'zaro bog'liqligi. Byudjet siyosatining faqat byudjet jarayoniga tegishli emasligi. Davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo'naltirish – byudjet siyosatining ustuvorligi.

¶

**4-mavzu. Byudjet siyosatini amalga oshirish vositalari byudjet tizimi, byudjet to'zilmasi va byudjet jarayoni**

Byudjet siyosatini amalga oshirishda byudjet tizimi va byudjet tuzilmasi roli. Byudjet klassifikatsiyasi. Byudjet jarayoni va byudjet siyosatining o'zaro vobastaligi. Byudjet jarayonini aniqlashga qaratilgan byudjet siyosati. Byudjet siyosatini byudjet loyihasini tayyorlashdagi ahamiyati. Byudjet siyosatini byudjet muhokama etish va tasdiqlashdagi o'rni. Byudjet siyosatini byudjet ijrosini ta'minlashdagi roli. Byudjet intizomini mustahkamlashi byudjet siyosatini o'ziga xos xususiyatlari. Byudjet nazorati. Byudjet ijro hisoboti va uni tasdiqlash siyosati

**5-mavzu. Byudjet defitsitini kamaytirish bo'yicha byudjet siyosatining markaziy masalasi**

Byudjet defitsitini mohiyati va turlari. Byudjet defitsitini turlari. Byudjet defitsitini vujudga kelish sabablari. Byudjet defitsiti darajasini kamaytirishni asosiy yunalishlari. Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari. Byudjet defitsiti va byudjet siyosati muammolariga konseptual yondoshuvlar

**6-mavzu. Zamonaviy byudjet soliq siyosatini ishlab chiqish asoslari**

Zamonaviy soliq siyosati. Soliq tizimini moliyaviy munosabatlarga ta'siri. Utish sharoitida amaldagi soliq tizimi. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi.Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish tizimi. Soliqqa tortishning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish masalasi. Soliq organlarining soliq amaliyotini mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatda soliqlarni undirish darajasini oshirish. Soliqqa tortish nazariyasi va soliq siyosati muammolari va yechimlari. Soliq tizimi, soliqqa tortish

prinsiplari va ularning soliq siyosatini shakllantirishga ta'siri. Soliq siyosatida soliqlarni tartibga soliq insturmentlari. Byudjet soliq siyosati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni doimiyligi. Soliqning undiriluvchanligini oshirish va byudjet soliq siyosati.

**7-mavzu. Soliq yukini yengillashtirish - soliq siyosatining eng dolzarb masalasi**

Soliq yuki: aniqlanish tartibi, darajasi, kamaytirish masalalari. Soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlash muammolari. Soliq yukini kamaytirishning munozarali masalalari. Soliq yukining og'irligini kamaytirish va byudjet harajatlari. Soliq yuki og'irligining ijobiy va salbiy talqini.

**8-mavzu. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish – soliq siyosati samaradorligini ta'minlash garovi**

Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish prinsiplari. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish uchun hisobga olinadigan holatlar. Soliq imtiyozlarini amalda samarali faoliyatini tashkil etishni rag'batlantirish. Soliq siyosati samaradorligini ta'minlashning roli. Soliq imtiyozlari bo'yicha muammolarni yuzaga keltiruvchi omillar. Soliq imtiyozlari orqali quyiladigan maqsadga erishish. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish soliq siyosatini samaradorligini ta'minlashning garovi. Soliq va imtiyoz dialektikasi. Soliq imtiyozlarining salbiy jihatlari. Soliq imtiyozlari berishni tashkil qilishning asosiy prinsiplari. Investitsion soliq kreditlarining umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan investitsion dasturlarning bajarilishini ta'minlaydigan soliq to'lovchilar guruhiga berilishi kerakligi.

**9-mavzu. Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlar, muammolarni hal qilish va e'tirozlarni yumshatish yo'llari**

Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari ularni keltirib chiqaruvchi omillar. Byudjet-soliq siyosatini byudjet daromadlarini asoslashdagi roli va miqdor jihatdan amalda mavjud soliqlarning byudjet daromadlarini to'liqligini ta'minlashga ta'sirini baholash masalalari. Soliq siyosatiga va soliq yukiga nisbatan soliq to'lovchilarnig e'tirozlarini namoyon bo'lish holatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar. Byudjet-soliq siyosatiga doir dolzarb muammolarni hal etish va e'tirozlarni yumshatish yo'llari, unda xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalarining roli.

**10-mavzu. O'zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)**

O'zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari. Soliq tizimini o'ziga xos vazifalarni soliq siyosatini takomillashtirishdagi roli. Soliq siyosatini takomillashtirishni eng muhim yo'nalishlari. Zamonaviy soliq siyosatini shakllantirish masalalari. Byudjet soliq siyosatini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlari.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

**(Seminar mashg'ulotlari)**

Amaliy mashgulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Byudjet-soliq siyosatining mazmuni, iqtisodiy moxiyati va ahamiyati.
2. Byudjet-soliq siyosatini oqilona boshqarishning zarurligi.
3. Byudjet-soliq siyosatini tarkibiy qismlari.
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalashtirishda moliya siyosatning roli.
5. Byudjet-soliq siyosati: fanining predmeti va vazifalarini o'rganish
6. Moliyaviy siyosat – byudjet-soliq siyosatining asosi
7. Byudjet siyosati – moliyaviy siyosatning eng muhim tarkibiy qismi
8. Byudjet siyosatining mazmun mohiyati. Byudjet harajatlari – byudjet siyosati namoyon bo'lishining asosiy shakli.
9. Byudjet siyosatini amalga oshirish vositalari byudjet tizimi, byudjet tuzilmasi va byudjet jarayoni
10. Byudjet defitsitini kamaytirish bo'yicha byudjet siyosatining markaziy masalasi
11. Zamonaviy byudjet soliq siyosatini ishlab chikish asoslari
12. Soliq yuklamasini optimallashtirish – soliq siyosatining eng dolzarb muammosi
13. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish – soliq siyosati samaradorligini ta'minlash garovi
14. Byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlar, muammolarni hal qilish va e'tirozlarni yumshatish yo'llari
15. O'zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari)

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va prinsiplari
2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari)

3. Hozirgi bosqichdagi moliyaviy siyosat va uning o'ziga xos xususiyatlari
4. Byudjet siyosatining mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllari
5. Byudjet harajatlari – byudjet siyosati namoyon bo'lishining asosiy shakli
6. Byudjetdan moliyalashtirish va byudjet siyosati
7. Byudjet siyosati va byudjet normalari (me'yorlari), harajatlar smetasi va byudjet krediti
8. Byudjet harajatlarini sarflash masalalari va vazifalari, ularning byudjet siyosati bilan o'zaro bog'liqligi
9. Byudjet tizimi va byudjet tuzilmasi, ularning byudjet siyosatini amalga oshirishdagi roli
10. Byudjet jarayoni va byudjet siyosatining o'zaro vobastaligi
11. Byudjet defitsiti: mohiyati, ta'rifi, turlari va vujudga kelish sabablari
12. Byudjet defitsitiga nisbatan strategik yondoshuv va uning darajasini kamaytirish chora-tadbirlarining asosiy yo'nalishlari
13. Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari
14. Byudjet defitsiti va byudjet siyosati muammolariga konseptual yondoshuvlar
15. Soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyat
16. Soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi va soliq siyosati
17. Soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari, ularning soliq siyosati hayotiychanligiga ta'siri
18. Iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida soliqlar va soliq siyosati
19. Soliq siyosati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari
20. Soliqlarning undiriluvchanligini oshirish va soliq siyosati
21. Soliq yuki: aniqlanish tartibi, darajasi, kamaytirishning nimalarga bog'liqligi, taqsimlanganligi
22. Soliq yukini kamaytirishning munozarali masalalari
23. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish prinsiplari
24. Soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish uchun hisobga olinadigan amaliy holatlar
25. Soliq va imtiyoz dialektikasi
26. Soliq imtiyozlarining salbiy jihatlari
27. Soliqlarni to'lash – qullik emas, hurlik belgisi
28. "Byudjet hisobidan berilayotgan oylik maoshlarining kamligi"
29. "Soliqlar sonining ko'pligi va ularning ko'payib borayotganligi"
30. "Soliq stavkalarining yuqori darajadaligi"
31. "Soliq imtiyozlarining yetarli darajada emasligi va soliqlar tomonidan yetarli darajada rag'batlantirilmayotganligi"
32. "Soliq yukining nisbatan og'irligi va uning soliq to'lovchilar o'rtasida notekis taqsimlanganligi"

Mustaqil uzlashtiriladigan mavzular buyicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3 **V.Fan o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

– Byudjet-soliq siyosatining iqtisodiy mohiyati, zarurligi, belgilari va funksiyalari;
– O'zbekiston Respublikasida moliya siyosatining asosiy o'zgarishlari;
– davlat moliyasi, davlat byudjeti, mahalliy moliya, mahalliy byudjetlarni daromadlarini shakllantirish va boshqarish asoslari;
– jahon byudjet amaliyoti, chet mamlakatlar byudjet tizimida byudjet-soliq siyosatining roli;
– mamlakat byudjet-soliq siyosatini yaxlitliligini ta'minlanishi;
– soliq siyosatini amalga oshirishda mahalliy byudjetlar va respublika byudjetining o'zaro munosabatlari;
– o'rta muddatli byudjetlarni shakllantirish tartibi;
– jahon andozalari asosida byudjet-soliq siyosati bog'liqligi;
– byudjet-soliq siyosatining ustuvor yunalishlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
– byudjet-soliq siyosatini tartibga solish qoidalari;
– byudjet-soliq siyosati qonuniyatlarini;
– byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uslubiyotini;
– moliya siyosatini ustuvorlarini belgilash asoslarini;
– hozirgi zamon sharoitida byudjet-soliq siyosatini ta'minlash mezonlarini;
– mahalliy byudjetlar ijrosi g'aznachilik usuli ilk tajribalarining yakunlarini va muammolarini;
– byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning dinamikasi tahlilini;
– soliq og'irligi va uning holatini belgilovchi omillarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi.***
– mahalliy byudjetlar resurslarini boshqarishning asosiy usullarini, mahalliy Byudjetlar bo'g'inlarida moliyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari;
– makro darajada va hududlar miqyosida davlat byudjet siyosatining amal qilishi;
– soliq og'irligining korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ta'siri tahlili;
– soliq to'lovchilarga nisbatan soliq og'irligini mukammallashtirish yuzasidan tegishli ***malakaga ega bo'lishi lozim;***
– davlat byudjeti daromadlari va harajatlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, byudjet ijrosi yakunlarini tahlil etish bo'yicha;
– byudjet siyostining hozirgi zamon holatini baholash bo'yicha;
– hozirgi zamon soliq tizimi holati va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish bo'yicha;
– moliya organlarida har kunlik soliq tushumi ishlarni tashkil etish bo'yicha;
– mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda moliya bo'limi funksiyalarining bajarilishi bo'yicha;

| | |
|---|---|
| | – hududlarda investitsion jarayonlarini tezlashtirish bilan soliqqa tortish mexanizmi bo‘yicha;<br>– hudud moliyaviy imkoniyati va mahalliy byudjetlar daromad bazasini oshirish yo‘llarini tahlil qilish bo‘yicha;<br>– byudjet-soliq amaliyotiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlardan yetarli foydalanish bo‘yicha;<br>– hozirgi zamon byudjet-soliq siyosatining dolzarb masalalarini hududlar darajasida hal qilish bo‘yicha ko‘nikmaga ega buladi. |
| 4 | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari**<br>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>• esse, tezis va maqolalar yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;<br>• jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• loyiha ishi bajarish;<br>• mustaqil ishlarni bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni yechish;<br>• so‘rov o‘tkazish;<br>• muammoni hal qilish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni tula uzlashtirish, taxlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, urganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo`yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **ASOSIY ADABIYOTLAR:**<br>1. Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati. o‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019 y.<br>2. T. S. Malikov, S. R. Allayarov. "Byudjet-soliq siyosati" fanidan amaliy mashg‘ulot uchun uslubiy ko‘llanma./ - T.: TMI, 2017 y.<br>3. Ж.Р.Зайналов, С.С.Алиева, Н.Э.Эрназаров, Ш.М.Латипова. Бюджет-солик сиёсати. Ўкув қўлланма – Самарканд.: “STEP-SEL” МЧЖ. нашриёти, 2023 -354 б.<br>4. Shernayev A. A., Jiyanova N. E. Davlat moliyasini boshqarish: Darslik./ - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. - 380 s<br>5. Jiyanova N. E., Tashmatova R. G. Byudjetno-nalogovaya politika. Uchebnoye posobiye./ - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. - 216 s<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1.O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrdagi “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi №O‘RQ-589- sonli Qonuni<br>2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrdagi “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi №O‘RQ-659- sonli Qonuni<br>3.O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi №O‘RQ-742- sonli Qonuni<br>4.O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi №O‘RQ-812- sonli Qonuni<br>5.O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi №O‘RQ-891- sonli Qonuni<br>**INTERNET SAYTLARI:**<br>1.www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali.<br>2.www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3.www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti.<br>4.www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.<br>5.www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti.<br>6.www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.<br>7.www.openbudget.uz - O‘zbekiston Respublikasi —Ochiq byudjet portali.<br>8.www.prezident.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot hizmati.<br>9.www.sciencedirect.com - Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi. |
| 8 | Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgust dagi \_\_\_-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№FD-09-24) |
| 9 | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>**Zaynalov Jaxongir Rasulovich**– SamISI, “Moliya” kafedrasi mudiri professori, i.f.d. |
| 10 | **Taqrizchilar:**<br>**I.Salamov** – SamVMI “Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlik va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.<br>**R.Turaqulov** – Samarqand shahar hokimligi moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari |